



UDK 69.003.13

**Qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda
innovatsion tadbirlarning ahamiyati**

R.M. Egamov

SamDAQU “Biznesni boshqarish” kafedrası mudiri

R.Sh. Husainova

SamDAQU menejment ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini boshqarishda innovatsion chora-tadbirlar ishlab chiqishga bag‘ishlangan nazariy qarashlar o‘rganilgan. Shuningdek, qurilish korxonalarining mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish uchun klister tizimini innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining amal qilishi samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: qurilish mahsuloti, innovatsiya, boshqarish, raqobatbardoshlik, klasterlashtirish, qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligi,

Kirish Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini rivojlantirish zarurligi doirasida ishlab chiqarish faoliyatiga ta’sir qiluvchi innovatsion tadbirlarni ishlab chiqish va ulardan oqiona foydalanish masalasi dolzarbligi hamda ushbu masalani o‘rganish borasida qator tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, qurilish materiallarining raqobatbardoshligiga innovatsion tadbirlar asosida



ta'sir etuvchi omillar belgi va xususiyatlari bo'yicha chegaralanmagan hamda aniq tasnif holatida ishlab chiqilmagan. Aytib o'tish joizki, qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligi oshirish milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalardan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarga ega. Innovatsion yondashuvlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va yaratilayotgan innovatsion xizmatlarga qo'shilayotgan yangi sifatlar iste'molchilarning yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shakllanayotgan o'ziga xos ehtiyojlarini to'liq qondirish hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy dolzarb bo'lib turgan masalalaridan biridir.

Shuning uchun qurilish sohasining innovatsion rivojlanishi, innovatsion tadbirlar asosida qurilish materiallarining raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi har bir omilni alohida va muayyan yo'nalishlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda qurilish mahsulotlarini innovatsion ishlanmalar asosida rivojlantirish tarmoqning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan yetkazib berish, saqlash va tashish bilan shug'ullanuvchi logistik tuzilmalar faoliyatini takomillashtiruvchi institusional muhitini rivojlantirish omilini ham alohida e'tiborga olinishi lozim. Yuqoridagi omillar qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: Qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy yuqori texnologiyalarga ega bo'lgan ishlab chiqarish ob'ektlarini barpo etish maqsadida, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda innovatsion faoliyatni yaxshilash orqali qurilish materiallarining raqobatbardoshligini takomillashtirish borasida ko'plab iqtisodchi va siyosatchi olimlar tadqiqot olib borganlar, Jumladan:

Xorijlik olimlardan M.Dogdson, G.Grossi, J.Genri, D.Uolker, F.Vestley, X.Minzberg, B.Taker, Y.Shumpeter va boshqa olimlarning asarlarida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha zamonaviy innovatsion



yondashuvlarga keng e'tibor berilgan bo'lsa¹, MDHlik olimlaridan A.Abalkin, A.Anchishkin, I.Afonin, Ye. Balaskiy, V.Barancheyev, V.Abramov, A.Bovin, G.Gamidov, P.Zavlin, R.Fatxutdinova, I.Shlyaxto va boshqa olimlarning ishlarida innovasion menejment innovasion tadbirlarning nazariy va amaliy tahlili masalalari qarab chiqiladi.

Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda iqtisodiyot tarmoqlarida, xususan, qurilish korxonalarida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda innovasion tadbirlarni tashkil qilishni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari O'zbekiston iqtisodchi olimlari S.S.Gulyamov, N.Q.Yuldashov, Sh.A.Mirsaidova, Y.D.Goldman, Sh.N.Zaynutdinov, U.G'afurov, R.I.Nurimbetov, Sh.I.Otajanov, A.Artikov, R.M.Egamov va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda yoritilgan.

Qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion tadbirlar asosida bozorni tahlil qilish va uning metodologik jihatlari M.Porter va A.Aaykerlarning ilmiy adabiyotlaridan keng o'rganilgan. Jumladan, A.Aayker qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tadqiqotlarini o'tkazish bu bozorni tahlil qilish usulidan foydalanishda asosan iste'mol sektorida amalga oshiriladigan segmentlash usullaridan foydalanigan holda tushuntirgan [1]. M.Porterning nazariyalari mamlakatlarning raqobatli ustuvorliklari bo'yicha o'ziga xos jixatlarni ajratishda innovasion tadbirlar asosida raqobatli tadqiqotlarini tahlil qilish usullaridan foydalanish va tarmoq industriyasini shakllantirish bo'yicha tadqiqot olib borgan [2].

Bizning fikrimizcha, qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion tadbirlarni tashkil qilish va joriy tahlili bo'yicha yuqorida keltirilgan barcha fikrlar bir-birini to'ldiradi, bundan tashqari, aynan qurilish sohasida innovatsion tadbirlarni

¹ Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. Oxford University Press, 2000, 248p. Такер Р. Инновации как формула роста / Р. Такер. – М. : Олимп – Бизнес, 2006. – 240 с. Grossi G. Promoting Innovation in a big business. Long range planning. Vol. 23, N1, 1990, 240p. Шумпетер И. Теория экономического развития / И. Шумпетер. – М.: Директ-Медиа, 2007. 400 с. 8. Henry, J. and Walker,



tashkil qilish tushunchasiga nazariy va amaliy jixatdan asoslangan ta'rifini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb bo'lib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ilmiy maqolada statistik tahlil, tizimli va mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini innovatsion tadbirlar asosida oshirishning iqtisodiy mexanizmi borasida iqtisodchi olimlar fikri o'rganildi va ularning ilmiy qarashlari tizimli va mantiqiy tahlillar natijasida olib borildi va 1-jadval orqali innovatsion yondashuvlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni tasnifiy belgilari hamda turlari, uning umumiy tasnifi taqdim etilgan. Innovatsion yondashuvlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshlik klasterlarining faoliyat olib borishini baholash uchun muvaffaqiyatli klasterni rivojlantirish ko'rsatkichlaridan foydalanish, uning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari sifatida talqin etish mumkin. Bu xulosa alohida klaster ishtirokchilarining va umuman butun klasterning yuqori darajadagi raqobatbardoshligi ishlab chiqarishni klaster tashkil etishning asosiy natijaviy ko'rsatkichi ekanligiga asoslanadi.

Tahlil va natijalar Innovatsion tadbirlarni joriy etish bu qurilish materiallarining raqobatbardoshligini ta'minlash hamda yangi klaster tizimining muvaffaqiyatli ishlashi va sohaning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur. Shuningdek, ushbu faoliyatning raqobatli klaster tizimini shakllantirishda bu tizimni innovatsion boshqarish qisqa va uzoq muddatda samarali amalga oshirishi zarur. Qurilish korxonalari o'rtasida bir fikrga to'g'ri kelish talab etiladi tizimining innovatsion klaster tizimi mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash maqsadida, alohida-alohida funksional, mustahkamlik, faollik va tashkiliy tizimlar yuqorida aytib o'tilgan darajasini belgilaydi. Bundan tashqari, klasterlarning raqobatbardoshligini boshqarish turli vaqt oralig'ida har tomonlama tahlil qilish uchun xususiy raqobatbardoshlik indeksleri qabul qilinadi [3, 21 b.].



**Innovatsion tadbirlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini
oshirishga ta'sir etuvchi omillarni umumiy tasnifi** 1-jadval

Tasnif belgisi	Omil turi	Omil tavsif
Innovatsion tadbirlarni qo'llash darajasiga qarab	Xarajatlarga ta'sir etuvchi innovatsion tashqi obyektiv omillar	Innovatsion tadbirlar asosida qurilish jarayonlariga yetkazib berilayotgan resurslarni teziroq yetkazib beruvchi tizimini shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar, logistik texnologiya ta'siri, iqtisodiyotdagi global o'zgarishlarga olib keladi;
	Xarajatlarga ta'sir etuvchi innovatsion tashqi subyektiv omillar	qurilish bozoridagi hamda qurilish kompaniyalariga xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar o'rtasidagi raqobat kurashining xususiyatlari;
	Logistik zanjirga bog'liq ichki omillar innovatsion tadbirlar	Ilmiy-texnik, texnologik, malakali mehnat, moliyaviy va axborot resurslari, zanjir bo'g'inlarining o'zaro aloqasi, logistik tizim xodimlarining motivatsiyasi va boshqalar.
Innovatsiyalarning ta'sir ko'rsatish muddatiga qarab	Uzoq muddatda ta'sir etuvchi omillar	Innovatsion tadbirlarning shakllanish siyosati samaradorligi, iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli sikl tendensiyasi, aholi turmush darajasi va korxonani foydalilik darajasi
	Qisqa muddatda ta'sir etuvchi omillar	Qurilish materiallariga innovatsion bozor talabining alohida o'zgarishi, qurilish materialini yetkazib berish, Yangiliklar kiritish orqali qisqa muddatli ustunlikka ega bo'lish
Qurilish	Asosiy omillar	Yangi qurilish materialini ishlab chiqarish, yetkazib




korxonalarining inovatsion tadbirlar asosida rivojlanish darajasiga qarab	Sezilarli omillar	berish, taqsimlash, qurilish materiallari bozorida sotish, foyda olish, soliq to'lash, qo'shimcha qiymat zanjirin yaratish;
	O'zgarmas omillar	
Korxonaning yangilik kiritish darajasining shakllanish manbasiga qarab	Infratuzilma omillar	Innovatsion tadbirlar asosida infratuzilma tizimlarini shakllantiruvchi omillar
	Tashkiliy omillari	Boshqaruvchi qobiliyati hamda kompetentligi, ularni qurilish xizmatlarini yaratish jarayoniga qurilish sanoati korxonalari materialni yetkazish jarayoni uchun samarali boshqaruv tizimini yarata olishi
	Iqtisodiy omillar	Logistik zanjir tarkibidagi autsorsing korxonalarini o'z asosiy faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlari va salohiyati
Qurilish mahsulotlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish xarakteriga qarab	Rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillar	Salbiy institusional muhit, ta'minotdagi uzilishlar, yangi qurilish texnologiyalari to'g'risidagi axborotlarga ega emaslik yoki axborotning o'z vaqtida olinmasligi, logistik zanjir boshqaruv tizimining markazlashmaganligi
	Rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi omillar	Davlat xususiy sherikchilik asosida qurilish mahsulotlarini rivojlantirish, qulay investitsion muhit, qurilish sohasiga malakali kadrlar tayyorlash

Qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun innovatsion tadbirlarni ishlab chiqishda klaster tizimi kichik muddatda yirik iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilash mumkin. Innovatsion tadbirlar asosida uzoq va qisqa muddatli rivojlanishga



erishish maqsadida klister tizimini ishlab chiqiladi. U klaster tizimi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatidan samarali rivojlanishni ta'minlaydi.



1-rasm. Qurilish mahsulotlarining klasteri tizimida raqobatbardoshlikni baholashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.

Bu holda uzoq muddatda klaster tizimining xususiy raqobatbardoshlik indeksi qisqa muddatda raqobatbardoshlik indeksidan kam bo'lishi mumkin. Taklif etilayotgan takomillashtirilga yondashuvning biri bu – mazmuni jixatdan parametrlarga qaratilgan izohdir, qilinayotgan har bir taxmin doirasida ko'rsatkichlar qiymatlarga ajratilgan iqtisodiy variantlarini taxmin turlini qilishdir. Birinchidan, asosiy modelda faqat to'rtta ko'rsatkich ko'rib chiqiladi, bu dastlab taxmin qilinayotgan parametrlarning asossiz ko'pligini



toraytiruvchi shartdir (1-rasmga qarang). Qurilish sanoati klasteri tuzilishini ikki xil mexanizmi mavjud. Bularni geometrik o'rtacha miqdor qiymati asosida baholash nazarda tutiladi raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarning. Ikkinchidan, har bir ko'rsatkichni birgalikda metodologik tashkil etish doirasida keyingi talqin bilan bir necha iqtisodiy qiymatlarni qabul qilish mumkin. Ushbu modelni turli iqtisodiy tizimlarni darajadagi uchun bu usuldan foydalanishni ta'minlash uchun variantlar ichidan qaratilgan o'zgaruvchan qiladi.

Raqobatbardoshlikning taxminiy ko'rsatkichlari tabiatini klasterlarning parametrlarini ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Funktsiyalar parametri qisqa muddatda klaster tizimining ishlashini ko'rsatadi. Bu, birinchi navbatda, mijozlar ehtiyojlarini qondirishni anglatadi. Qurilish mahsulotlarini klasterining asosiy vazifasi mahsulot ishlab chiqarish va ushbu mahsulotlar bilan bozorni ta'minlashdir.

Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishda klister tizimining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlar tizimi

Indikator nomi	Baholash ko'rsatkichining uslubiy mazmuni	Ko'rsatkich mazmunini izohlovchi iqtisodiy qadriyatlar
Funksionallik ko'rsatkichi	Qisqa muddatli ishlash, ya'ni mijozlar ehtiyojini qondirish	-sotilgan mahsulotlar hajmi; - korxonalar aylanmasi; - korxonalarning xo'jalik faoliyati turi bo'yicha aylanmas
Tizimlilik ko'rsatkichi	Qisqa muddatli samaradorlik, ya'ni resurs ta'minotining iqtisodiy samaradorligi	- xar bir xodim xisobiga qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish; - xodim ulishi yalpi hududiy mahsulotni ko'paytirish
Faollik ko'rsatkichi	Yangi innovatsion faoliyat, risklari ta'sirini yumshatish yangixavf-xatarga	-innovatsiya asosida mahsulot hajmi; - ilmiy o'rganishlarni moliyalashtirish miqdori;



	moslashish va x.q	-investisiyalarni asosiy vositalarga jalb qilish
Amaliy ko'rsatkich	O'rtadagi hamkorlik va integratsiyali hamkorlik, namoyon bo'lgan jamiyatlarni ta'minlash. Integratsiyaning o'zaro bog'liqlik darajasi	- ish bilan band bo'lganlar soni -Klaster kompaniyalari; - xo'jalik faoliyati turi bo'yicha klasterdagi korxona va tashkilotlar soni

Qurilish jarayonida klasterning integrallashgan raqobatbardoshlik indeksi tizimli ravishda to'rtta ko'rsatkichni ko'rsatadi. Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati klasteri, innovatsion tadbirlar asosida ilmiy ishlanmalar, moliya institutlari va institutlarining o'zaro aloqalarini yaratishning innovatsion yondashuvlarini amalga oshirish tegishli klaster tuzilmasi asosida talab qilanadi.

Xulosa va takliflar. Bizni fikrimizcha ilmiy maqolada qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini innovatsion tadbirlar asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish natijasida quyidagi umumiy xulosaga keldik:

-qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini innovatsion tadbirlar asosida oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amalga oshirishdan ko'zlangan pirovard maqsad korxona, jumladan qurilish sanoati tarmog'i rivojlanishini barqarorligiga erishish hisoblanadi. Bunda qurilish sanoati korxonalarini barqaror rivojlanishini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tizimli ravishda o'zaro bog'liqligini ta'minlash zarur;

- innovatsion tadbirlarlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga samarali amal qilishda bir qator uslublariga asoslanishi lozimligi ta'kidlangan;



- qurilish mahsulotini ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlar asosida o‘zaro bog‘liq holda qurilish sanoati korxonasini barqaror rivojlantirishni ustuvor elementlarini tizimli tahlil qilish zarur;

- qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish hamda innovatsion tadbirlar asosida tartibga solish holatiga baho berish orqali uni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash;

- qurilish korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy mexanizmga baho berish zarur va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y.
<https://lex.uz/docs/5841063>
2. Abdusamatov, B. K., and R. M. Egamov. "Level of competitiveness of building products to increase innovative success." (2022).
3. Isayev J.M Sanoat tarmog‘ini rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish(qurilish materiallari sanoati misolida)diss avtor (PhD) Farg‘ona 2023 35 b
4. Kerashev A.A., Baybekova R.A Sosialno-ekonomicheskiye mexanizmy promyshlennyyh predpriyatiy
5. Kulman A. A. Ekonomicheskiye mexanizmy//. M.: Progress; Univers., 1993. 92 s. 6. Poluxin A.A. Organizasionno-ekonomicheskij mexanizm modernizatsii sel'skogo xozyaystva Rossii/ A.A. Poluxin// Agrarnaya Rossiya. - 2012 - №5 s. 23-2
6. Egamov R.M. "Qurilish industruyasi korxonalarida innovatsion tadbirlarni samarali tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari." Innovatsion texnologiyalar 3 (43) (2021): 88-91.
7. Abdusamatov, B. K., R. M. Egamov, and SH B. Abdusamatov. "Some of the Improvements in Entrepreneurship in the Construction Industry." *JournalNX*: 189-193.